



UDK: 37.07:004:37.091

G'olibjon OTAMURODOV,

PhD, dotsent

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: foniy_02_03@mail.ru

DSc, professor Y.Ergashov taqrizi asosida

TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA UMUMTA'LIM MUASSASALARI RAHBAR KADRLAR BOSHQARUV KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada ta'limni axborotlashtirish sharoitida umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetenligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish hamda rahbarlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limni axborotlashtirish, boshqaruv kompetenligi, rahbar kadrlar, umumta'lim muassasalari, raqamli texnologiyalar, boshqaruv samaradorligi, kasbiy rivojlanish, metodik asoslar, ta'lim menejmenti, innovatsion boshqaruv.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ РУКОВОДЯЩЕГО СОСТАВА ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАТИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье раскрываются теоретико-методические основы развития управленческой компетентности руководящих кадров общеобразовательных учреждений в условиях информатизации образования. Также проанализированы механизмы эффективного использования цифровых технологий, совершенствования управленческих процессов и развития профессиональных компетенций руководителей. Результаты исследования направлены на разработку научно-практических рекомендаций, способствующих повышению эффективности управления в системе образования.

Ключевые слова: Информатизация образования, управленческая компетентность, руководящие кадры, общеобразовательные учреждения, цифровые технологии, эффективность управления, профессиональное развитие, методические основы, образовательный менеджмент, инновационное управление.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING MANAGEMENT COMPETENCE OF LEADING STAFF OF GENERAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE CONDITIONS OF INFORMATIZATION OF EDUCATION

Annotation

This article highlights the theoretical and methodological foundations for developing the managerial competence of leaders of general education institutions in the context of education informatization. It also analyzes mechanisms for the effective use of digital technologies, improvement of management processes, and development of professional competencies of leaders. The research results are aimed at developing scientific and practical recommendations to enhance management efficiency in the education system.

Keywords: Education informatization, managerial competence, leadership staff, general education institutions, digital technologies, management efficiency, professional development, methodological foundations, educational management, innovative management.

Ta'limni axborotlashtirish hozirgi kunda jamiyat taraqqiyotining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi va rivojlanishi ta'limni rivojlantirishning zamonaviy va uni tashkil etishdagi ko'p sonli yondashuvlarda muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda u ta'lim muassasalarining infrastrukturasi, ya'ni ta'lim muassasasining axborot muhitini rivojlantirishga qaratiladi. Bunda zamonaviy axborot servislarini tatbiq etish va ulardan samarali foydalanish nazarda tutiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'limdagi muhim vazifalaridan biri shundaki, u alohida pedagogik masalalarni yechishda ishlatiladigan instrument vazifasini bajarish bilan birgalikda ta'lim berishning innovatsion imkoniyatlarini ta'minlaydi, didaktika va metodikaning rivojlantirishga hamda o'qitish va ta'limning zamonaviy shakllarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va uning ta'lim jarayoniga keng tatbiq etilishi ta'lim ishtirokchilariga yangi imkoniyatlar yaratadi, yangicha yondashuvlarni vujudga keltiradi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tizimida o'quv sifatini ta'minlash va uning samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim muassasalarida uni keng joriy etishning ahamiyati katta. Ta'kidlash o'rinliki, hozirgi sharoitda ta'lim tizimining rivojlanib borayotganligi, ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi integratsiyaning mavjudligi ham axborot texnologiyalari tufaylidir.

Maktab ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos raqobat bardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur

sharoitlar yaratilishi hozirgi zamon talabi bo'lib kelmoqda. Shu sababli Respublikamizda bir qator huquqiy-normativ hujjatlarining, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son, "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son hamda "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli qarorlarining qabul qilinishi iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, maktab ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, o'quvchilarni zamonaviy kablarga tayyorlash bo'yicha umumta'lim fanlarini optimallashtirish borasidagi istiqbol vazifalarni belgilab berdi.

Jumladan, umuta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlash, umumta'lim muassasalari rahbarlarining mamlakatni isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas'uliyatini oshirish, rahbar kadrlarda boshqaruv kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, ta'limni axborotlashtirish sharoitida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, ta'limni axborotlashtirish bu ta'lim va tarbiya jarayonlariga axborot mahsulotlari, vosita va texnologiyalarini joriy etish asosida pedagogik jarayonlar metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirishning nazariy asoslarini birinchi navbatda, informatika va axborot texnologiyalar, kibernetika, tizim nazariyasi va albatta didaktika tashkil etadi.

Respublikamiz olimlaridan U.Begimqulovning fikricha, ta'limni axborotlashtirish deganda ta'lim-tarbiyaning psixologik-pedagogik maqsadlarini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim tizimida elektron axborot-ta'lim muhitini tashkil etish, ta'lim sohasining elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish, kompyuter texnologiyalarini joriy qilish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta'minlash nazarda tutiladi [4]. Bu jarayon, birinchidan, integrallashgan o'quv va ilmiy ma'lumotlar bazasini yaratish, ulardan foydalanish asosida ta'lim tizimini axborotlar bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirishni; ikkinchidan, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda, shaxsni rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash, metodologiyasini rivojlantirishni; uchinchidan, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, ularda mustaqil bilim olish malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitishning metodik tizimini yaratishni; to'rtinchidan, o'quvchilar bilimini baholash va o'zlashtirish monitoringining kompyuter tizimini yaratishni va ulardan foydalanishni maqsad qiladi [4].

Darhaqiqat, ta'limni axborotlashtirish umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini zamonaviy axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish asosida takomillashtirishning muhim shart-sharoitlaridan biri sifatida belgilash – hozirgi kunning muhim masalalaridan biri bo'lib, buning uchun ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni boshqarishda axborotdan keng qamrovda foydalanilishi, natijasida:

boshqaruvga informatsion yondashuv;
boshqaruvga semiotik yondashuv;

boshqaruvga intellektual yondashuv kabi ilmiy ta'limotlarning vujudga kelganligini kuzatishimiz mumkin. Garchi, ularni birlashtiruvchi - informatsion jarayonmi, faoliyatni amalga oshirish jarayonimi uni aniq nuqtaga boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishga yo'naltirishdan iborat [5].

D.A.Kononov, V.V.Kul'ba, A.K.Shubin kabi tadqiqotchilar ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda, axborot vositasida ta'sir ko'rsatish usullarini ko'rsatib o'tish bilan birga, axborot kanallarini, aniqlik muassasa (idora) doirasida vujudga kelgan holat (muammo) yoki uni galdagi rivojlanish bosqichini ta'minlash maqsadida boshqaruvni amalga oshirish maqsadidan kelib chiqqan holda axborotlarni saralash lozimligini ko'rsatib o'tgan [6]. Tadqiqotchilar tomonidan axborotni saralashda uning sohaga oidligi, dolzarbligi, asosga ega ekanligi kabi tarkiblardan iboratligi nazarda tutilgan.

Pedagog olim I.G.Filippovani ko'rsatib o'tishicha axborot kanallari va axborot ko'lamini kengayib borishi boshqaruv faoliyatini amalga oshirishni qiyinlashtiradi [7].

Ta'limni axborotlashuvi sharoitida boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish uchun jarayonni boshqaruvining ko'p darajali tizimidan foydalanishga to'g'ri keladi. Bunda, axborot oqimi, son ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga o'tib, vujudga kelgan vaziyatni to'liq tasvirlash uchun yetarlicha ma'lumotni yetkazib beradi. Ammo, ulardan maqsadli foydalanish rahbar shaxsiga, aniqlik kasbiy kompetensiyalarini egallanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Chunki texnik omil, vaziyat omili, inson omili kabilar boshqaruv jarayonida doimiy tarzda ishtirok etadi va rahbar boshqaruv faoliyatida ularni ta'sir darajasi va ishtirokini lavozim funksiyalari asosida belgilab olishi lozim [8]. Shu sababli, ta'lim muassasalari rahbar kadrlarini malaka oshirishini tashkil etish jarayonida boshqaruv kompetensiyalarining asosiy komponentlarini shakllantirish dolzarb pedagogik masala hisoblanishini N.V. Xodyakova, N.A.Afanasyeva, S.V.Yunov, O.G.Noskova, A.A.Abdugodirov, U.SH.Begimqulov, N.A.Muslimov, N.I.Taylaqov, Sh.S.Sharipov, S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, M.R.Fayziyeva, T.T.Shoyardonov kabi olimlar, bu masalani nazariy, tashkiliy, texnik, dasturiy va kasbiy jihatlariga oid o'z munosabatlarini bildirishgan.

Pedagog olim U.Begimqulov o'z tadqiqotlarida ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini jadal sur'atlar bilan joriy etilishi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining quyidagi yo'nalishlarini alohida ta'kidlaydi:

1. O'quv maqsadlaridagi dasturiy vositalarning imkoniyatlarini o'qitish vositasi, o'rganish obyekti va axborotlarni qayta ishlash vositasi sifatida joriy etish.

2. O'quv-metodik majmualar yaratishda, o'quv-namoyish asboblari va kompyuter vositalari imkoniyatlarining integratsiyasi.

3. Multimedia tizimlarini yaratishda, kompyuterlar va audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlarining integratsiyasiga erishish.

4. Sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan intellektual o'qitish tizimlarini yaratishda foydalanish.

5. Global va lokal kompyuter tarmoqlari orqali axborot almashuvini ta'minlovchi axborot va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish.

6. Axborot almashuvining yangi texnologiyasi – bu real vaqt rejimida stereoskopik tasavvur tizimi, ya'ni «Virtual haqiqiylik» hisoblanadi [4].

Bizning fikrimizcha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nafaqat boshqaruv sohasidagi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda, balkim, boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish,

boshqaruv vazifalarini hal etish, jarayonlarni loyihalashtirish, modellashtirish, prognozlashtirish, shuningdek, mustaqil o'zini-o'zi shaxsiy va kasbiy rivojlanirish jarayonlarida ham samarali mexanizmlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Elektron pedagogika yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchi T.Shoyardonov esa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarida ta'lim oluvchilarning o'quvchanlik, mustaqil ta'lim va o'zini-o'zi rivojlanirish qobiliyati ortadi, ijodiy qobiliyatlar, axborotni mustaqil izlash va yangi bilim olish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini rivojlanadi. Bunda ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini, o'zini-o'zi taqdim qilish qobiliyatini rivojlantirish; variativlikni ta'minlash (pedagogik vazifalarni amalga oshirishning samarali mexanizmini tanlash imkoniyatini yaratish); to'laqonli mustaqil ishlari uchun sharoit yaratish (ularni bilish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'ziga ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish; tez o'zgarayotgan sharoitlarda ta'lim oluvchilarning mobilligi va moslashuvchanligini oshirish imkonini beradi, deya ta'kidlaydi [9].

Bizning fikrimizcha ham, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim muhiti va kasbiy rivojlanish jarayonlarini rahbar kadrlardagi boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim mazmuni va texnologiyalarini individuallashtirish hamda shaxs ehtiyojlariga yo'nalganligini ta'minlaydi.

Bizga ma'lumki, kompetensiya tushunchasi 1959-yilda amerikalik psixolog R.Boyatzis tomonidan motivatsiyalarni ilmiy o'rganish jarayonida ilmiy muloqotga kiritilgan bo'lib, subyekt tomonidan biron bir vazifani bajarish uchun unda ifodalangan bilim va tajribani mujassamlashtirishni ifodalash uchun qo'llanilgan [10].

1-jadval

Umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligining asosiy komponentlari

№	Kompetentlik komponenti	Mazmuni	Axborot texnologiyalari bilan bog'liqligi
	Kognitiv kompetentlik	Boshqaruvga oid bilimlar, qonunchilik va strategik rejalashtirishni bilish	Elektron ma'lumotlar bazalari va analitik tizimlardan foydalanish
	Axborot-kommunikatsion kompetentlik	AKT vositalaridan samarali foydalanish	Raqamli platformalar, LMS, elektron hujjat aylanishi
	Tashkiliy-boshqaruv kompetentligi	Jamoani boshqarish va resurslarni taqsimlash	Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari
	Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik	Muloqot, hamkorlik va nizolarni boshqarish	Onlayn kommunikatsiya vositalari
	Innovatsion kompetentlik	Yangiliklarni joriy etish va rivojlantirish	Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish
	Shaxsiy rivojlanish kompetentligi	O'zini-o'zi rivojlantirish va refleksiya	Masofaviy ta'lim platformalari

E.F.Zeyerning ta'kidlashicha, kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi [13]. Aytish joizki, kompetentlikning asosiy darajalari kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini-o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlari kiradi. Shu bilan birga, kompetentlik tarkibida kishining bilim, ko'nikma va malakalariga bog'liq holda bu qobiliyatlardan foydalana olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Pedagog olim N.Muslimovning nuqtai-nazaricha, kompetentlik – bu talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi [14].

So'nggi yillarda zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kompetentli yondashuv masalasi uzluksiz rivojlanib boruvchi ta'lim jarayonlarida bosqichma-bosqich shakllangan edi.

Ko'p qo'llaniluvchi "kompetentlik" tushunchasi kasbiy shakllanish va kasbiy yetuklikni baholovchi meyor bo'lib, unga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlari nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Umuman olganda, bu tushuncha shaxsning qandaydir hayotiy vaziyatlarda, ijtimoiy va kasbiy faoliyatda avtoritarligi, shu soha bo'yicha tushuncha hamda bilimlarga egaligi bilan tavsiflanadi.

Kompetentlikning yuqorida sanab o'tilgan turlari albatta bir insonni to'liq shaklda tavsiflashi shart emas, chunki, shaxs yaxshi mutaxassis bo'lishi mumkin, lekin o'zini-o'zi boshqarish yoki shaxslararo kasbiy muloqot malakalariga ega bo'lmasligi mumkin, qolaversa, yuqori darajada kasbiy kompetentlikka ega bo'la turib, shaxsiy va ijtimoiy kompetentligi past darajada bo'lishi mumkin bu esa o'z navbatida professionalizm darajasi subyektning kasbiy mahoratning yo'nalganligi, ko'rsatgichi va mazmuni hamda mutaxassisning professionallashuv darajasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va boshqa keng doiradagi kompetentlik bilan shartlangandir.

Bizningcha kompetentlikning komponentlari qatoriga kognitiv, emotsional, irodaviy sifatlardan tashqari o'ziga ishonch (o'zining kasbiy bilimlariga, liderlik qobiliyatiga va b...); qaror qabul qilish va uning ijrosini boshqarish malakasiga ega bo'lish; qiziqarli umumiy maqsadlarni qidirish, anglash va qaytarma aloqani qo'llashdagi samarali faoliyat; o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lish; o'zini-o'zi nazorat qilish, moslashganlik, murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlik va tavakkalchilikka moyillik, qat'iyatlilik, kasbiy mas'uliyatlilik va boshqalarni kiritishimiz mumkin (1-jadval).

Tadqiqotchi I.Zimnyaya kompetensiya va kompetentlik yo'nalishida olib borilgan ilmiy izlanishlarning tahlili ta'limga kompetentli yondashuvning shakllanishini quyidagi bosqichlarda ajratib ko'rsatadi:

Birinci bosqich (1960-1970-yillar) – ilmiy atamashunoslikka kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining kirib kelishi. Aynan mazkur davrdan boshlab til o'qitish nazariyasi va grammatikasida turli xil til kompetensiyalari, lingvistik kompetensiyalar, kommunikativ kompetentlik bilan bog'liq ilmiy izlanishlar boshlandi.

Ikkinchi bosqich (1970-1990-yillar) – kompetensiya va kompetentlik tushunchalari nafaqat til o'qitish nazariyasi va amaliyotida, balkim boshqaruv mahorati, menejment, muloqotga o'rgatish, ijtimoiy kompetentlik kabi yo'nalishlarda rivojlandi.

Uchinchi bosqich – o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab kompetensiyaning ta'limga ilmiy tushuncha sifatida kirib kelishi. Bu borada A.K.Markova dastlab, kasbiy kompetentlik tushunchasini mehnat psixologiyasining muhim tushunchasi va tarkibiy qism sifatida izohlagan. Aynan mana shu davrdan boshlab, kompetentlilik va ta'limga kompetentli yondashuv tushunchasi pedagogik-psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida faol o'rganila boshlangan.

Rahbarning kasbiy kompetentligini M.Narzullayeva nizoli vaziyatlarda adekvat qarorlar qabul qilishda deb tushunadi. Shu bilan bir qatorda bu xarakterning alohida xususiyatlari bo'lib qolmay, u tashkilot faoliyati xususiyatlari mehnat jamoasi a'zolari bilan real munosabat mahsuldorlik faoliyati bilan bog'liq. Tadqiqotchi rahbar kompetentligini yuqori lavozimdagi shaxs vazifalari doirasi sifatida ko'rib chiqadi hamda u amaliy vazifalarga nisbatan javobgarlikni aniqlaydi. Muallifning fikricha, ijtimoiy-psixologik kompetentlik quyidagi anglash, boshqarish, nazorat va baholash, o'ziga o'zi baho berish funksiyasiga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, rahbarning boshqaruv kompetentligi, ya'ni uning boshqaruv jarayonidagi vazifalarni hal etishga bo'lgan konstruktiv-ya'ni jarayonlar samaradorligini oshirishga, vaziyatni yaxshilashga xizmat qiluvchi yondashuvi destruktiv (nizoli, ziddiyatli) jarayonlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, nizoning ko'payishini to'xtatadi. Bu esa, nizoni hal qilish usulini belgilaydi ya'ni, boshqaruvchi destruktiv jarayonlarning (ziddiyatni) individual va jamoaviy faoliyatga salbiy ta'sirini to'xtatib, ularning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

Tadqiqotchi T.Bazarov kadrlar menejmenti yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida rahbar kadrlar uchun muhim bo'lgan innovatsionlik (muammoga yo'nalganlik, kreativlik, dinamiklik), muloqotchanlik (kooperativik, detsentratsiya, madaniyatlararo muloqot), liderlik (ta'sir eta olish, loyihalashtirish-bashoratlash, mobillik) kabi kompetensiyalar modelni taklif etadi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda muallif aynan kompetensiyalarga asoslangan yondashuv orqali kadrlarning individual, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ijodkorligini rivojlantirish tamoyillarini belgilaydi.

Psixolog olim, I.Mahmudovning ilmiy tahlillariga ko'ra, rahbarlik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatorida shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei alohida o'rin tutadi. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei rahbarlik faoliyatini bajarishda kuchli omil hisoblanadi. Buning ahamiyati ayniqsa Sharq madaniyati misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hududimizdagi oddiy fuqaro rahbar shaxsida nufuzli, o'ziga to'q va to'la-to'kis insonni ko'rishni hohlaydi. Ana shu "ko'rish" ijtimoiy moslashuv tarzida, rahbarga bo'lgan

munosabat xarakterini ifodalashni ta'minlaydi. Natijada, umumta'lim muassasasi rahbari, maqsad sari harakatlarni amalga oshirishda, ya'ni boshqaruvni amalga oshirishda pedagogik boshqaruvni funksiyalarini amalga oshirish uchun ma'lum harakatlarni bajaradi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu boshqaruv kadrlarining turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual, ma'naviy-ahloqiy, ijtimoiy-siyosiy hamda shaxsiy rivojlanishidir.

Bu borada, D.Mamatqulov rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligining tarkibiy qismi sifatida mafkuraviy kompetentlik tushunchasini ilmiy iste'molga keng kiritish masalasini taklif etadi. Muallifning fikricha, ta'lim menejmenti bilan mafkura o'rtasida o'ziga xos dialektik aloqa mavjudligi, har bir mamlakat ta'lim boshqaruvida ana shu mamlakatning rasmiy (huquqiy asosga ega) yoki norasmiy (huquqiy asoslarga ega bo'lmagan) mafkurasini rol o'ynaydi, shu bilan birga, bu jarayonda, mafkura o'z funksiyasiga ko'ra ta'lim menejmentining stilini belgilab beruvchi omil bo'lib xizmat qilishini bildirib o'tgan.

Yuqoridagi yondashuvlardan farqli ravishda, bizning tadqiqotimizda, umumta'lim muassasalari rahbar kadrlari tomonidan lavozim funksiyalarini bajarishlari uchun ularning shaxsida ifodalanishi shart bo'lgan tajriba, bilim va ko'nikmalar, boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasi, shuningdek, umumta'lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ekotizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish belgilab olindi.

Ilmiy izlanishlar va tahlillar davomida, shunday xulosaga kelindiki, umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligi - rahbar shaxsining integrativ sifatlari yig'indisi tarzida, umumta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, boshqarish va takomillashtirish uchun zarur hisoblangan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi hisoblanadi. Mazkur jihatlar umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarini shaxsiy tajribasida ijtimoiy, madaniy, lingvistik, ta'limiy, AKT, media, siyosiy, metodik va metakompetensiyalar tarzida, alohida faoliyat turi ko'rinishida ifodalanadi.

ADABIYOTLAR

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007. – 267 b.
2. Turakulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish: Ped.fan.dok....diss. avtoref. –T., 2017. 64 b.
3. Otamurodov G'.R. Axborot-ta'lim muhitida elektron portfolioni ochiq tizim sifatida amal qilishining ilmiy-texnologik tafsiloti // "Axborot ta'lim makonini takomillashtirishda axborot resurslari va texnologiyalari integratsiyasi" Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 25-27.
4. Филиппова И.Г. Анализ скорости информационных потоков в иерархии управления // Вестник ЧУУ им. В. Даля. 2007. № 9. - С. 15
5. Otamurodov G'.R. Oliy ta'lim tizimi rahbar kadrlari kasbiy kompetentligini belgilovchi omillar va ularni shakllantirish (Germaniya misolida) // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2017. №1/2. – B. 218-223.
6. Shoyardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2017. – 158 b.
7. Boyatzis Richard E. "The Competent Manager: A Model for Effective Performance". "Hippo Publishing Ltd", - 2008.
8. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. М.: 2002. (англ.1984).
9. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Ped.fan.dok....diss. -T.: 2007. -315 b.